Qabul qilindi: 8-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 14-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 15-sentabr 2026-yil

MILLIY BUXGALTERIYA HISOBI TIZIMINI XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MOSLASHTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

Fayzullayeva Oydin Baxramjon qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur tezisda raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekiston Respublikasi korxonalarida milliy buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashtirish masalalari tadqiq etilgan. Milliy va xalqaro standartlar o'rtasidagi farqlarni bartaraf etish, moliyaviy hisobotning shaffofligi va ishonchliligini ta'minlash korxonalarning investitsion jozibadorligi va raqobatbardoshligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Tadqiqotda milliy standartlarning xalqaro standartlardan farq qiluvchi jihatlari, ushbu farqlarning moliyaviy hisobotga ta'siri hamda moslashtirish jarayonidagi tashkiliy-huquqiy muammolarni kompleks baholash imkoniyatlari yoritilgan. Xalqaro tajriba asosida milliy hisob tizimini bosqichma-bosqich xalqaro standartlarga o'tkazish mexanizmi taklif etilgan. Natijada standartlashtirilgan yondashuvlardan foydalanish orqali moliyaviy hisobot sifatini oshirish, xorijiy investorlar bilan ishonchli munosabatlarni shakllantirish va korxonalarning barqaror rivojlanishini ta'minlash imkoniyatlari asoslangan.


Kalit so`zlar: xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (ifrs), milliy buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, standartlashtirish, raqamli iqtisodiyot, moliyaviy shaffoflik, investitsion jozibadorlik, hisob siyosati, muvofiqlashtirish, korxona barqarorligi.

KIRISH

Raqamli iqtisodiyot va xalqaro iqtisodiy integratsiya sharoitida O'zbekiston korxonalarining moliyaviy hisobotlari xorijiy investorlar va xalqaro moliya institutlari uchun tushunarli hamda ishonchli bo'lishi zarur, biroq milliy buxgalteriya hisobi standartlari bilan xalqaro moliyaviy hisobot standartlari o'rtasidagi farqlar bu jarayonga to'sqinlik qilmoqda.

Muammo shundaki, milliy hisob tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va bosqichma-bosqich o'tish mexanizmlari hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. Shu sababli tadqiqotning maqsadi — O'zbekiston Respublikasi korxonalarida milliy buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashtirishning nazariy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish va amaliy tavsiyalar shakllantirishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun milliy va xalqaro standartlar o'rtasidagi farqlar tahlil qilinadi, moslashtirish jarayonidagi muammolar aniqlanadi va bosqichma-bosqich o'tish modeli taklif etiladi.

Milliy buxgalteriya hisobi standartlarini xalqaro standartlarga moslashtirish jarayoni katta hajmdagi tashkiliy, huquqiy va uslubiy o'zgarishlarni talab qiladigan murakkab jarayonlardan biri hisoblanadi. Shu sababli standartlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash, hisob siyosatini qayta ko'rib chiqish, xodimlar malakasini oshirish va moliyaviy hisobotni qayta tuzish korxonaning moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.



Avvalgi tadqiqotlarda ham korxonalarning xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvi aynan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga muvofiqligi bilan uzviy bog'liqligi ta'kidlangan. Standartlarga muvofiqlik moliyaviy hisobotning ishonchliligini ta'minlashning boshlang'ich nuqtasi bo'lib, korxonaning investitsion jozibadorligi va xalqaro hamkorlik imkoniyatlari aynan shu muvofiqlik darajasiga bog'liq ekanligi asoslangan.

Shu nuqtayi nazardan, raqamli iqtisodiyot sharoitida standartlarga moslashtirish jarayonini faqat bir martalik o'tish tadbirlari asosida emas, balki tezkor monitoring va uzluksiz nazorat asosida boshqarish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Tadqiqotda tizimli tahlil, statistik ma'lumotlarni o'rganish, qiyosiy-huquqiy tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, ilmiy abstraksiya, ekspert baholash hamda prognozlash usullaridan foydalanish nazarda tutiladi. Ushbu metodologik yondashuvlar milliy hisob tizimlarini xalqaro standartlarga moslashtirish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarda ham qo'llanilgan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mazkur metodlarni raqamli monitoring va hisobot tekshiruvi tizimlari bilan uyg'unlashtirish moslashtirish jarayoni samaradorligini muntazam baholash va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nomuvofiqliklarni oldindan aniqlash

imkonini beradi.

Standartlarga moslashtirish jarayonida asosiy shartlardan biri — har bir hisob ob'ekti (aktivlar, majburiyatlar, daromad va xarajatlar) bo'yicha milliy va xalqaro talablar o'rtasidagi farqni to'liq va aniq hisobga olishdir.

Hisob siyosatining shakllantirilishidan tortib, moliyaviy hisobotning yakuniy shaklga keltirilishigacha bo'lgan barcha bosqichlarda yuzaga keladigan farqlarni raqamli shaklda qayd etish boshqaruv samaradorligini oshiradi.

Raqamli monitoring tizimi orqali standartlarga muvofiqlik darajasi, tuzatish yozuvlari (korrektirovka) soni, hisobot tayyorlash muddatlari va xodimlar tomonidan yo'l qo'yilgan uslubiy xatolar kabi ko'rsatkichlarni muntazam kuzatib borish mumkin. Bu esa moslashtirish jarayonidagi samarasiz bosqichlarni tezkor aniqlash imkonini beradi.

Mazkur yondashuvning muhim jihati shundaki, moslashtirish samaradorligi faqat yakuniy hisobot orqali emas, balki jarayonning har bir bosqichida baholanadi. Natijada korxona rahbariyati qaysi hisob yo'nalishi bo'yicha nomuvofiqlik yuqori ekanligini va uning moliyaviy hisobotga ta'sirini aniqlashi mumkin.

Milliy hisob tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishning quyidagi ketma-ketligini taklif etish mumkin:

standartlar farqini raqamlashtirish → moslik monitoringi → ko'rsatkichlarni tahlil qilish → moslashtirish samaradorligini baholash → muammoli nuqtalarni aniqlash → risklarni prognozlash → boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish → natijalarni monitoring qilish. Bunda moslashtirish samaradorligini baholashda mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlardan birgalikda foydalanish maqsadga muvofiq. Turli davrlarga oid ko'rsatkichlarni taqqoslash uchun ularni nisbiy qiymatlarga keltirish va normallashtirish zarurligi ta'kidlanadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida standartlarga moslashtirish samaradorligini oshirish tegishli risklarni o'z vaqtida aniqlash bilan chambarchas bog'liq. Korxonalarda standartlarni moslashtirish bilan bog'liq risklar talqin farqlari (standartlarni noto'g'ri qo'llash), me'yoriy-huquqiy bazaning o'zgarishi, xodimlarning malaka yetishmasligi, dasturiy ta'minotning moslik ko'rsatmasligi, valyuta kursi omillari va tarjima-terminologik nomuvofiqliklar bilan

bog'liq bo'lishi mumkin.

Standartlarga moslashtirish risk omillarini baholashda uch bosqichli yondashuvdan foydalanish mumkin. Birinchi bosqichda moliyaviy hisobotni tayyorlashda uchraydigan risk omillari tizimi shakllantiriladi. Ikkinchi bosqichda ushbu omillarning hisobot sifati va korxona faoliyatiga ta'sir darajasi ekspert baholash asosida aniqlanadi. Uchinchi bosqichda esa risk omillari kompleks baholanadi.

Ushbu yondashuvni raqamli iqtisodiyot sharoitida yanada takomillashtirish mumkin. Bunda standartlarga muvofiqlikka oid ma'lumotlar muntazam ravishda raqamli tizimga kiritilib, ularning o'zgarish dinamikasi kuzatiladi. Belgilangan chegaraviy qiymatlardan (masalan, tuzatish yozuvlari sonidan) chetlanishlar aniqlanganda, boshqaruv tizimida tegishli ogohlantirish shakllantirilishi mumkin. Shunday qilib, raqamli monitoring moslashtirish risklarini faqat ular ro'yobga chiqqandan keyin baholash bilan cheklanmay, ularni oldindan aniqlash va ehtimoliy salbiy oqibatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Moslashtirish ehtiyojlarini prognozlash.

Standartlarga muvofiqlikni ta'minlashning yana bir muhim yo'nalishi — kelgusidagi o'zgarishlarga ehtiyojlarni prognozlashdir. Xalqaro standartlarning yangilanish dinamikasi, korxonaning kelgusida qanday hisob resurslariga (malakali kadrlar, dasturiy ta'minot) ehtiyoj sezishini oldindan aniqlash moslashtirish jarayonini optimal rejalashtirish imkonini beradi. Tadqiqotlarda miqdoriy ko'rsatkichlarni prognozlashda ekstrapolyatsiya usullaridan foydalanish va yetarlicha uzoq dinamik qator mavjudligini ta'minlash zarurligi ta'kidlangan.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida esa ushbu jarayonni avtomatlashtirish imkoniyatlari kengayadi. Korxonaning tarixiy hisobot ma'lumotlari muntazam yangilanib borishi natijasida prognoz natijalari ham doimiy ravishda takomillashtirilishi mumkin. Natijada korxona moslashtirish jarayonini faqat mavjud talablar asosida emas, balki kelgusidagi standart o'zgarishlari prognoziga muvofiq rejalashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Standartlarga moslashtirish va raqamli monitoring tizimlarining joriy etilishi hisobot sifatini oshirish bilan birga, moslashtirish risklarini boshqarishning yangi imkoniyatlarini yaratadi. Birinchi navbatda, raqamli ma'lumotlar bazasi korxona hisobotining real muvofiqlik holatini aniqlash imkonini beradi. Ikkinchidan, ko'rsatkichlar dinamikasini

muntazam tahlil qilish orqali salbiy tendensiyalarni (masalan, tuzatishlar sonining oshishi) erta aniqlash mumkin. Uchinchidan, prognozlash asosida kelgusidagi ehtimoliy risklar va zarur resurslarni oldindan aniqlash imkoniyati paydo bo'ladi.

Bunda sifat va miqdoriy baholashning uyg'unligi alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotlarda moslashtirish risklarini baholashda sifat va miqdoriy omillarni birgalikda hisobga olish riskning iqtisodiy tabiatini va moslashtirish darajasini to'liqroq aks ettirishi qayd etilgan. Shu sababli raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarda standartlarga moslashtirish samaradorligi va tegishli risklarni boshqarish yagona tizim sifatida shakllantirilishi maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy hisob tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish va tegishli risklarni boshqarish o'zaro bog'liq jarayonlar hisoblanadi. Raqamli monitoring orqali standartlarga muvofiqlik darajasini, tuzatishlarni va uslubiy xatolarni muntazam kuzatish, moslashtirish samaradorligini baholash va samarasiz jarayonlarni aniqlash mumkin. Shu bilan birga, ko'rsatkichlarni prognozlash korxonaning kelgusidagi ehtiyojini aniqlash va moslashtirish jarayonlarini oldindan rejalashtirish imkonini beradi.

Iqtisodiy risklarni boshqarishda makro, mezo va mikro darajadagi omillarni tizimli ravishda baholash, ekspert xulosalari va raqamli ma'lumotlarni uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv risklarni oldindan aniqlash, ularning korxona faoliyatiga salbiy ta'sirini kamaytirish va boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, raqamli monitoring, prognozlash va kompleks baholashni yagona boshqaruv tizimiga birlashtirish milliy hisob tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, hisobot xarajatlarini kamaytirish, moliyaviy shaffoflikni ta'minlash va korxonalarning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

O'tkazilgan tadqiqot natijasida shu narsa aniqlandiki, raqamli iqtisodiyot va xalqaro integratsiya sharoitida milliy buxgalteriya hisobi standartlari bilan xalqaro moliyaviy hisobot standartlari o'rtasidagi farqlar korxonalarning xorijiy investorlar bilan ishonchli hamkorlik qilishiga to'sqinlik qilmoqda, bu esa standartlarni moslashtirishni ob'ektiv zaruratga aylantirmoqda. Milliy va xalqaro standartlar o'rtasidagi farqlarni tahlil qilish

natijasida hisob siyosati, aktiv va majburiyatlarni baholash hamda moliyaviy hisobot shakllarida jiddiy nomuvofiqliklar mavjudligi aniqlandi. Taklif etilgan bosqichma-bosqich modeli — standartlar farqini raqamlashtirish, moslik monitoringi va risklarni prognozlash — orqali ushbu nomuvofiqliklarni tizimli tarzda bartaraf etish mumkinligi asoslandi.

Tadqiqot natijalaridan korxonalarning moliya-buxgalteriya xizmatlari standartlarga o'tishni bosqichma-bosqich rejalashtirishda, tegishli davlat organlari me'yoriy hujjatlarni takomillashtirishda, shuningdek OTMlarning tegishli o'quv dasturlarini yangilashda foydalanishlari mumkin. Kelgusida ushbu mavzuni turli sohalar (bank, sanoat, qishloq xo'jaligi) kesimida standartlarga moslashtirish xususiyatlarini o'rganish, raqamli monitoring tizimlarini AI vositalari bilan integratsiyalash va kichik-o'rta biznes uchun soddalashtirilgan moslashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish yo'nalishlarida davom ettirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5953-sonli Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-210-sonli qarori.

4. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi. – 2017.

5. Urakova M.H. O'zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) o'tish bosqichlari va barqaror rivojlanishi // Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali. – 2024. – 4(03). – B. 423-427.

6. Aralov S.J. O'zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning dolzarbligi va ahamiyati // Iqtisodiyot va ta'lim. – 2023. – 3-son. – B. 153-160.

7. Maxmasobirova N.U., Saydaliyev J.N. O'zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanish masalalari // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2025. – 5(6). – B. 391-399.

8. Sheraliev X.K. Issues of Implementation of International Financial Reporting Standards // The Innovation Economy. – 2025. – 1(05).

9. Djumanov S. MHXS 9 (Moliyaviy instrumentlar) standartining tijorat banklari moliyaviy natijalariga ta'siri // Interfinance ilmiy jurnali. – 2023.

10. Tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga transformatsiya qilish masalalari. – 2025.

11. Toshnazarov S.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot: muammo va yechimlar: Monografiya. – T.: "Navro'z" nashriyoti, 2016. – 290 b.

12. IFRS Foundation. Who Uses IFRS Standards? – International Financial Reporting Standards Foundation, 2024.

13. Nobes C., Parker R. Comparative International Accounting. – Pearson Education, 2020.

14. https://finance.tsue.uz — "Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi" ilmiy jurnali rasmiy sayti

15. https://www.ifrs.org — IFRS Foundation rasmiy sayti

16. https://strategy.regulation.gov.uz — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari loyihalari muhokamasi portali.

